



BUYUK AKBARNING BOBURIYLAR TARIXIDA TUTGAN O'RNI

Otaqo'ziyeva O'g'iloy

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI TARIX FAKULTETI

4-BOSQICH TALABASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7376344>

ARTICLE INFO

Received: 19th November 2022

Accepted: 27th November 2022

Online: 29th November 2022

KEY WORDS

Akbar Mirzo, Jahongir,
Hindiston, hindlar,
musulmonlar, Dehli
Monseratning fikri, Du
Jarrikning fikri.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Boburiylar sulolasining yorqin vakillaridan biri bo'lmish Akbar Mirzoning hukmronlik davrida Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, xalqining farovonligi uchun o'tkazilgan islohotlar, musulmonlar va hindlar o'rtasida azaldan mavjud bo'lgan g'animlikni yo'qotish maqsadidagi chora-tadbirlari hamda o'sha davrda saroyga tashrif buyurgan xristian missionerlarining Akbar haqidagi ma'lumotlari haqida qisqacha so'z yuritiladi.

Akbar o'zining 50 yillik hukmronlik davrida Hindiston shimolidagi otasidan qolgan uncha katta bo'lmagan mamlakatni birlashtirib, ulkan salatanatga aylantirdi va uni mohirona boshqarish tizimini yaratdi va bu tizimni amalda qo'lladi.

Akbarni Hindiston tarixida alohida bob yaratdi. Shu o'rinda hind tarixchisi doktor Ishvari Prasandning bir gapini yodga olsak: "Akbar Hindiston tarixidagina emas, balki butun dunyo tarixida ham eng buyuk shohdir. Akbar ulug'vorlikda ham, omadbarorlikda ham ulardan ustun turadi".

Akbar Hindistonda hukmdorlikni o'z qo'lga olishi bilan otasi Humoyunshoh davrida qo'ldan chiqarilgan sarhadlarni o'z imperiyasiga qo'shib chegaralarni mustahkamlay boshladi. Bu keyinchalik Angliya uchun qo'l keladi. Akbarning imperiyasi Qobul, Qandahor, Sind, Mo'ltan, Lahor, Kashmir, Dehli, Agra, Ajmir, Ilohobod, Avad, Bihar, Bengaliya, Bengal

ko'rfazidagi Orissa, shuningdek, Molva, Gujorot, Xondesh, Beror, Ahmadnagar kabi viloyatlardan tashkil topgan edi.

Uning hukmronligi davrida ijtimoiy hayotda qator islohotlar o'tkazildi. Diniy e'tiqodi, mazhabi yoki irqi asosida kamsitilib kelingan mahalliy hindlar va boshqa etjik guruhlariga o'z urf-odatlarida rioya qilish, istalgan dinga e'tiqod qilish imkoniyatini yaratib berildi. Masabdorlar tomonidan mahalliy aholiga o'tkaziladigan tazyiqlarga va kamsitishlarga chek qo'yildi.

Mahalliy hindlarning turli sabablarga ko'ra kamsitilishlariga chek qo'yilishi mahalliy xalq nazarida Akbarning obro'sini oshirib yubordi. Uning buyrug'iga binoan poytaxtda maxsus tarjimonlik muassasasi tashkil qilinib, unda hind tilidagi diniy kitoblarni fors tiliga tarjima qilish ishlari yo'lga qo'yildi.

Xristian diniga e'tiqod qiluvchilar uchun ham 1603-yilda maxsus farmon orqali o'z diniga sig'inishlariga ruxsat etildi. Bundan



avvalroq urushda asir tushganlarga musulmon dinini majburan qabul qildirish tartibini bekor qilish haqida farmon chiqarildi. Hindlarning sigirlarga nisbatan bunday e'tiqodini hisobga olgan holda mol go'shtini iste'mol qilishga yo'l qo'yilmas edi.

1583-yildan e'tiboran haftaning ma'lum kunlarida ayrim hayvonlarni so'yish va ularning iste'mol qilishni taqiqlovchi tartiblar o'rnatilgan edi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, 1590-1591-yillarda ho'kiz, qo'tos, echki qo'y, ot va tuya go'shtini iste'mol qilish taqiqlab qo'yilgan edi. Mahalliy hindlar bilan musulmonlar o'rtasidagi g'animlik munosabatlarini ilitish maqsadida Akbar shaxsan o'zi hindlarning Rahi, Denavali, Shivaratri deb atalgan bayramlarida ham ishtirok etib turar edi.

U Hindistondagi soliq to'lashdagi musulmonlar va hinduiylar orasidagi notenglikni bartaraf etdi. Shuningdek, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida dehqonlarga keng imkoniyatlar yaratdi. Jumladan, dehqonlarning yerlarini ularga mulk sifatida mustahkamlab qo'ydi. Zamonga mos keladigan qonunlar ishlab chiqdi. Bilamizki Hindiston tarixida tub aholining oila va nikoh borasida ham muammolarini yechishda ulkan ishlarni amalga oshirdi. Balog'at yoshiga yetmagan o'smirlarning turmush qurishini man qiluvchi qonun yaratdi. Bundan tashqari, beva ayollarning turmush qurishiga ruxsat berdi.

Hinduiylik dinida beva qolgan ayollarga turmush qurish mumkin emas edi, bundan tashqari, ular umrining oxirigacha bir xil kiyim kiyib yurishardi. Ayrim hududlarda esa eriga qo'shib olovda yoqilardi. Yuqorida Akbarning oqilona siyosati bunga barham berib, jamiyatda ayollar mavqeyini

tikladi. Akbar Hindistonda fan va madaniyat rivojiga ham ulkan hissa qo'shdi. Misol uchun, hindu olimlarini Sanskrit tilini o'rganishga rag'batlantirdi. Hind, fors, turk va arab tillaridan tashkil topgan urdu tilini hayotga tatbiq qildi.

Hukmdor musulmonlar va mahalliy raiyat vakillari bo'lmish hindlar orasida murosasozlik qilish, o'zaro hurmat munosabatlarini tiklash va tinch-totuv yashashlarini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan bu chora-tadbirlar Akbar saltanatining tobora kengayishi va har tomonlama mustahkamlanishi hamda uzoq yillar gullab-yashnashini ta'minlovchi omillar bo'ldi.

Akbar Mirzoning hukmronlik faoliyati va shaxsiy fe'l-atvori haqida o'zining zamondoshlari ham, keyingi davr tarixchilari ham noyob fikrlarni bildirganlar. Abulfazlning "Ayni Akbariy" va "Akbarнома" asarlarida, shuningdek, taxt vorisi Jahongirning "Tuzuki Jahongiri" asari hamda qator xorijiy sayyohlarning bitiklarida Akbar haqida qimmatli fikrlarni uchratish mumkin.

Jahongirning ta'kidlashicha, Akbarning qaddi-qomati ulug'vor ko'rinishga ega bo'lib, bo'yi o'rta bo'ydan sal yuqoriroq, yuzi bug'doyrang, qosh-ko'zlari qora, tanasi to'qroq rangda, ko'kraklari keng, qo'l va bilaklari uzun, arslon kelbatli kishi edi. Burnining chap yonida no'xatning yarmicha keladigan, o'ziga juda yarashib turadigan xoli bor edi. O'sha davr bashoratchilarining talqiniga ko'ra, bu xol o'z egasiga ulkan omad va martaba keltirar emish.

O'sha paytda missioner sifatida shoh saroyiga taklif etilgan xristian rohiblaridan biri shunday deb yozgan edi: "U haqiqattan ham buyuk shohdir:u hamma ucun sevimli shoh bo'lib, har bir fuqaro uning



g'amxo'rligini sezib turardi: u saroy a'yonlariga samimiy, quyi tabaqadagilarga shafqatli nazar bilan qarar, ko'pincha esa, tabaqasi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar hammaga bir xil nazar bilan qarar edi. Adliya ishlari borasida esa juda adolatli hukmdor edi. Biror jinoyatchi adliya idoralari tomonidan o'lim jazosiga hukm qilingan bo'lsa, ushbu hukm uchinchi bor qayta chiqarilmagunicha uni ijro etmaslik tartiblarini joriy etgan edi. Mahkumni oqlovchi omillar isbotlangan hollarda uni afv etar va bu holdan juda-juda quvonib ketar edi".

Dehlida yashagan xristian missionerlaridan biri rohib Monseratning yozishicha: "Uning yuzidan nur yog'ilib turganidan birinchi qarashdayoq shoh ekanini shohlik liboslarisiz ham bilib olish mumkin edi. Yelkalari keng, boldirlari biroz egilganligidan uchun chavandozlik mashqlarida xo'b chiniqqanini sezib olish mumkin edi. Badani to'qroq rangda bo'lib, boshini o'ng yelkasi tomon biroz tashlab yurardi, qoshlari qalin, ko'zlari huddi quyoshda yarqirayotgan dengiz suvidek yaltirab-chaqnab turardi".

U yana shunday ma'lumotlarni keltiradi: "Balog'at yoshidagi turkiy yigitlar singari mo'ylov qo'yib, soqolini doim qirdirib yurar edi. Ota-bobolaridan farqi o'laroq sochini ustarada qirdirmas, qalpoq ham kiymas edi. Aytishlaricha, hind odatiga taqlid qilgan holda, salla o'rab yurar edi. Oyog'i jarohatlanmagan bo'lsa ham huddi oqsoq kishiddek chap oyog'ini biroz siltab bosar edi. Kulganida yuz tuzilishi o'zgarib ketardi, hotirjam bo'lgan holda esa yuzidan aslzodalarga hos donolik nuri yog'ilib turar edi. G'azablenganda esa undan ham ulug' bir qiyofaga kirar edi".

Tarixnavis va sayohatchi Du Jarriknig yozishicha, arzdorlarning shikoyatlarini

hafsala bilan tinglar, imkon boricha ularning iltimosini qondirish payida bo'lar edi. Oddiy fuqaroning arzimas sovg'alarini ham katta xursandlik tuyg'usi bilan qabul qilar, ba'zan esa bag'riga bosib ham qo'yar edi. Vaholanki, ayrim amaldorlarning qimmatbaho sovg'alarini ham bunchalik minnatdorlik bilan qabul etmas, ayrim hollarda esa ularga e'tibor ham bermas edi.

Akbar Mirzo juda saxovatli va bag'rikeng inson edi. Ota-onasi va qarindoshlari orasidagi burchlariga mas'uliyat hissi bilan qarar edi. Ukasi Hokim Mirzo unga juda ko'p tashvishlari orttirib kelgan bo'lsa ham, unga saxovat nazari bilan qarardi. Tilan olgan o'g'li Salimni juda sevar edi, bir necha bor isyonkorligiga qaramay uning gunohlarini afv etdi.

Hindiston tarixida chuqur iz qoldirgan bu ulug'vor shaxs tabiatidagi bunday noyob xislatlar har bir hukmdor uchun o'rnak bo'lg'usidir.

Hindiston bugungi kunda dunyodagi ko'zga ko'ringan rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallaydi. Hindiston tarixida ko'zga ko'ringan imperiyalardan biri Boburiylar imperiyasi. Imperiya boburiy hukmdor Akbar davrida gullab-yashnadi va taraqqiyot cho'qqisiga yetdi. Akbar mamlakatda ziyoliy qatlamni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Uning davrida konfessiyalararo tenglik o'rnatildi. Mamlakatda tenglik o'rnatdi, tub joy aholisiga alohida e'tibor qaratdi. Akbarning amalga oshirgan ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning ishlari insonlarni vatanga, e'tiqodga, ota - onaga, oilaga muhabbat va hurmatni tarannum etadi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida Javoharlal Neruning bir fikrini keltirib o'tsak: Akbarshohni ko'hna hind jamiyatdagi turli xil elatlarni



jipslashtirgan va ularni bitta millatga birlashtirgan buyuk hukmdordir. Akbarshoh o'zini hindistonlik deb bilgan va garchand u mahalliy xalqqa nisbatan

kelgindi hisoblansada, Hindiston uni sevib qoldi. Shuning evaziga Akbar Hindistonda muvafaqqiyat bilan hukmronlik qildi va mustahkam imperiya asosini qurdi.

References:

1. G'ofurjon Satimov. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri. -Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008-yil.
2. Turg'un Fayziyev. Bobur va uning avlodlari. – Toshkent: Yozuvchi, 1996-yil.
3. L. P. Sharma. Boburiylar saltanati. – Toshkent. 1998-yil.
4. Mahmudjon Nuritdinov. Boburiylar sulolasi. – Toshkent: Fan, 1994-yil.
5. G'ofurjon Satimov. Boburiyzodalar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003-yil.
6. G'ofurjon Satimov. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri. -Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008-yil.
7. Turg'un Fayziyev. Bobur va uning avlodlari. – Toshkent: Yozuvchi, 1996-yil.
8. L. P. Sharma. Boburiylar saltanati. Toshkent. 1998-yil.
9. <https://arxiv.uz>
10. <https://saviya.uz>